

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs. 15/31.12.2020.I.09.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVRSITETI

ALIMOV G'AYRATJON ABDURAXMON O'G'LI

**KLASTER TIZIMI ASOSIDA DONNI QAYTA ISHLASH
KORXONALARINI RIVOJLANTIRISH
(Toshkent viloyatidagi donni qayta ishlash korxonolari misolida)**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Alimov G‘ayratjon Abduraxmon o‘g‘li

Klaster tizimi asosida donni qayta ishlash korxonalarini rivojlantirish
(Toshkent viloyatidagi donni qayta ishlash korxonalari
misolida)..... 3

Алимов Гайратжон Абдурахмон угли

Развитие предприятий по переработке зерна на основе кластерной
системы (на примере зерноперерабатывающих предприятий
Ташкентской области)..... 27

Alimov Gayratjon Abdurakhmon ugli

Development of grain processing enterprises on the basis of cluster system
(On the example of grain recycling companies in Tashkent
region)..... 52

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 56

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs. 15/31.12.2020.I.09.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVRSITETI

ALIMOV G'AYRATJON ABDURAXMON O'G'LI

**KLASTER TIZIMI ASOSIDA DONNI QAYTA ISHLASH
KORXONALARINI RIVOJLANTIRISH
(Toshkent viloyatidagi donni qayta ishlash korxonalari misolida)**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Iqt3691 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.ifmr.uz) va «ZiyoNet» ta'lim axborot tarmog'ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Gulamov Abdulaziz Abdullayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Muxitdinova Kamola Alisherovna
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Abdullayeva Matluba Nematovna
Iqtisod fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 15/31.12.2020.I.09.04. raqamli ilmiy kengashning 20__ yil “__” _____ soat__ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100060, Toshkent shahri, Odilxujaev ko'chasi,1 uy. Tel.: (+99871) 299-00-01; faks: (+99871) 299-00-01; e-mail: tstu_rektorat@tstu.ru

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Manzil: 100060, Toshkent shahri, Odilxujaev ko'chasi,1 uy. Tel.: (+99871) 299-00-01; e-mail: tstu_rektorat@tstu.ru

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “__” _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil “__” _____ dagi _____ -raqamli reestr bayonnomasi).

O.K. Abduraxmanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.A. Gulamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

M.I. Akbarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda g'alla bozoridagi strategik qarorlar qabul qilinishida noqulay ob-havo sharoitlari, global iqtisodiy beqarorlik va geosiyosiy nizolari kabi omillar ko'plab noaniqliklarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur omillar oziq-ovqat bozorida narxlarning ko'tarilishiga va fyuchers kelishuvlari bo'yicha baholarning ortishiga olib keldi. Shundan kelib chiqib, jahonda don zaxirasini shakllantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash g'alla sanoatining samaradorligiga bog'liqdir. Global don, yem, un va xomashyo sanoati ishtirokchilarini ifodalovchi uyushmalari (World-Grain, USDA) tomonidan jahon hamjamiyatiga taqdim etilgan prognozlarga ko'ra "2030-yilga kelib, jahon bo'yicha don mahsulotlari o'sishini 1,4-1,7 baravar oshirishni nazarda ko'rsatib o'tilgan. 2040-yilga kelib, g'alla balansini o'zgarishini jahon iste'mol hajmida don ekinlari iste'molining ulushi 53 foizga, shu jumladan bug'doy 62 foizga, makkajo'xori 67 foizga, sholi 32 foizga, yem 71 foizga oshadi"¹. Jahon miqyosida innovatsion ishlab chiqarishda klaster tizimi asosida donani qayta ishlash korxonalarining barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash hamda innovatsion loyihalar va ishlanmalarga alohida e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatmoqda.

Jahondagi global integratsiya va kuchli raqobat sharoitida agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha, sanoat klasterlari subyektlarini kooperatsiyasida innovatsion boshqarish mexanizmini takomillashtirish, iqtisodiy rivojlanishni baholashda sanoat klasterlari strategiyasini tanlash vositalariga bag'ishlangan, shuningdek hududlarda yengil sanoatni klasterlar asosida rivojlantirish, agrosanoat klasterlarini boshqarishni rivojlantirish, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda agrosanoat klasterlarini rivojlantirish zarurligi, yevro ittifoq mamlakatlarda klasterlarni rivojlanish holati hamda don klasterlarini shakllantirilishi mintaqalar iqtisodiyoti samaradorni yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida don zaxirasini shakllantirish va qayta ishlash sanoatini rag'batlantirishda innovatsiyalarni hamda davlat tomonidan imtiyozlarni joriy etish zarur. Don yetishtiruvchi va qayta ishlovchi xo'jalik subyektlarini "to'g'ridan-to'g'ri imtiyozli kreditlash tizimini joriy etishdan tashqari, 2024-yilda davlat byudjeti mablag'lari hisobidan sotib olingan bug'doyni dalalardan transportda tashish va saqlash xarajatlari davlat hisobidan to'liq qoplanishi"² belgilangan. Bu vazifalar boshqaruvning eng so'nggi konsepsiyalari va yondashuvlaridan, shu jumladan klaster metodologiyasidan foydalangan holda butun don zanjirini takomillashtirish zarurligini belgilaydi. Milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash iqtisodiy rivojlanish strategiyasining tayanch elementi sifatida g'allachilik klasterlarining hududiy tizimini shakllantirish, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi

¹ Grain Analysis Market – Global Industry Analysis And Forecast (2024-2030), Free ChatGPT Extension.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev videoselektor yig'ilishida. O'zbekistonda fermerlarga g'alla yetishtirish uchun to'g'ridan-to'g'ri imtiyozli kreditlar ajratiladi. Toshkent, 12-fevral – Sputnik. 02.03.2024.

PF-5853-sonli “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2021-yil 3-fevraldagi PF-6159-sonli “Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda 2022-yil 8-fevraldagi PQ-121-sonli “Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 3-martdagi PQ-5017-sonli “Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Klaster tizimi, korxonalarda klaster usulini tatbiq etishning nazariy, uslubiy asoslarini hamda don mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini rivojlantirish masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar: A.Marshall, M.Porter, S.Rozenfeld, M.Joffrea, P.Marijn, L.Klerkx, W.Poczta, J.Sredzinska, P.Krugman, M.Chenczke, R.Andriyenko³larning ilmiy tadqiqot ishlarida har tomonlama tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlarining tadqiqot ishlari klasterlashning nazariy va amaliy jihatlari, sanoat korxonalarida klasterlarni rivojlantirish mexanizmi, ularni qo‘llab-quvvatlashning ayrim yo‘nalishlari E.V. Ivanova, E.V. Karpichev, R.V. Kostrigin, D. Koshcheev, I. Ablayev, A.V. Minakov, A. Chkoniya, P.A. Muxsinova, A.A. Verxovtsev, A.A. Chernenko, D.V. Zavyalov, O.V. Saginova, M.A. Panteleva va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Mamlakatda klasterlarning nazariy va uslubiy jihatlari, ularning mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni mamlakatimiz olimlari: D.X. Sapayev, S.S. Kasimov, T.T. Jo‘rayev, M.E. Hamidov, I.S. Xotamov, T.X. Farmonov, I. G‘aniyev, R. Obidov, Z. Xakimov, I.S. Ochilov, B.K. Abdumuminov va boshqalar⁴ tomonidan tadqiqot ishlarida o‘rganilgan.

³ Маршалл А. “Принципы экономической науки” В 3-х томах. -М.: Издательская группа «Прогресс», 1993 г. 594 стр. // Porter M. “The Competitive Advantage of Nations” New York: Free Press, 1990 g. 495 pp. // Rozenfeld S. “Bringing business clusters into the mainstream of economic development European planning studies” - 1997-No5-P-3-23. // Joffrea M., Marijn P., Klerkx L. “To cluster or not to cluster farmers? Influences on network interactions, risk perceptions, and adoption of aquaculture practices” Agricultural Systems 173 (2019) 151–160. // Poczta W., Sredzinska J., Chenczke M. “Economic Situation of Dairy Farms in Identified Clusters of European Union Countries”, Agriculture 2020, 10, 92; doi:10.3390/agriculture 10040092 www.mdpi.com/journal/agriculture, Received: 18 February 2020; Accepted: 23 March 2020; Published: 27 March 2020., pp.-1,3,7,8,9. // Andriyenko R. “The Role of Innovation Clusters in the Development of Innovative Environment”, Advances in Social Science Education and Humanities Research, volume 527 Proceedings of the VIII International Scientific and Practical Conference ‘Current problems of social and labour relations’ (ISPC-CPSLR 2020). pp. 58-59. // Krugman P. The self organizing economy. – John Wiley & Sons, 1996.

⁴ G‘aniyev I. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida qayta ishlashni rivojlantirishda agroklasterni yaratishdagi dastlabki qadamlar. “O‘zbekiston agrosanoat majmuasining raqobatbardoshligini oshirish va eksport salohiyatini yuksaltirish”

Biroq, tadqiqot ishlarida donni qayta ishlash korxonalarini klaster tizimi asosida rivojlantirish masalalari to'liq yoritilmagan, donni qayta ishlashga ixtisoslashgan xorijiy davlatlar tajribasi tahlil etilmagan hamda klaster tizimi asosida tashkil etilgan g'allachilikni qayta ishlash korxonalarining faoliyati takomillashtirish, qayta ishlash sanoati korxonalarida klaster tizimini qo'llashning afzalliklari, agrosanoat tizimida klasterlarni rivojlantirish masalalarini tadqiq etish talab etiladi.

Dissertatsiya mavzusi va dissertatsiya tugallangan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat transport universitetining 2022 – 2024-yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Klaster tizimi asosida donni qayta ishlash korxonalarini rivojlantirish yo'llari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi klaster usulidan foydalangan holda donni qayta ishlash korxonalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

don mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etishda klasterli yondashuvning mohiyati va mazmunini yoritib berish;

donni qayta ishlash sanoatida klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy tamoyillari va omillarini aniqlash

O'zbekiston Respublikasi don mahsulotlari klasterlarini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rganish;

O'zbekiston Respublikasi va Toshkent viloyatida don ishlab chiqarishning hozirgi holati va iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish;

Toshkent viloyatida don mahsulotlari ishlab chiqarish klasterlarining hozirgi holatini tahlil etish;

Toshkent viloyatida don mahsulotlari klasterining rivojlanishida mavjud muammolarni aniqlash;

don mahsulotlari klasterlarining hududiy tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini rivojlantirish konsepsiyasini yo'nalishlarini aniqlash;

klaster tizimi asosida donni qayta ishlashda to'plangan panel ma'lumotlarini ekonometrik modellashtirish;

samarali hududiy g'allachilik klasterini shakllantirish modelini ishlab chiqishdan iborat.

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruza tezislari to'plami, TDIU, 2014 y. // С.С. Касимов, Д.Х. Сапаев. Системное кластерное моделирование в стратегическом управлении производством на предприятиях виноградарства и виноделия Монография, ТХТИ, 2019г // Farmonov T.X. “Qishloq xo'jaligida klaster tizimini rivojlantirish: tajribalar, natijalar va istikbolli yunalishlar”, Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to'plami. Buxoro “Durдона” nashriyoti 2019-yil. // Obidov R. “Klaster tizimida qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash hamda sotish xarajatlari hisobining xususiyatlari”, “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 3, iyun, 2018. 2-7 b. // Jo'rayev T.T., Hamidov M.E. “Development of agro-industrial clusters in Uzbekistan and their role in agricultural development” International Finance and Accounting: Vol. 2019: Iss. 2, Article 12. -p.4-8. // Ochilov I.S., Abdumuminov B.K. “Klaster tizimida innovatsion samaradorlik masalalari”, “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnal. № 2, mart-aprel, 2019. 1-6 b. // Xakimov Z. “Sanoat klasterlari samaradorligini ta'minlovchi omillar tizimi”, “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali, 1/2022-yanvar fevral №00057 219-220 b. // Xotamov I.S. “Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari iqtisodiy samaradorligini oshirish”, “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali 2/2022-mart-aprel, № 00058, article DOI:10.55439/EIT/vol 10_iss2/a20, <http://iqtisodiyot.tsue.uz>, 182-183 b.

Tadqiqotning obykti. Toshkent viloyatida klaster asosida donni qayta ishlash korxonalarini tashkiliy-xo‘jalik faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib, klaster asosida donni qayta ishlash korxonalari faoliyati davomida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida qiyosiy tahlil, g‘allachilikning tizimli klaster usuli, SWOT-tahlil usuli, iqtisodiy-statistik tahlil, ekonometrik modellashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

donni qayta ishlovchi va eksport qiluvchi klasterlarning don mahsulotlarini xarid qilishga talab etiladigan aylanma mablag‘larini to‘ldirish uchun “revolver” kreditlarini ajratish orqali qo‘llab-quvvatlash zarurligi ilmiy asoslangan;

donni qayta ishlovchi sanoat korxonalarini ilmiy tadqiqot institutlari bilan hamkorligini oshirishni korxonalarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, biznes loyihalarni tayyorlash bo‘yicha biznes maktablarini tashkil etish orqali takomillashtirish taklifi ishlab chiqilgan;

donni qayta ishlovchi klasterlarda moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni davlat tomonidan ajratilayotgan kredit mablag‘laridan erkin foydalanish, mineral o‘g‘itlar, o‘simliklarni himoya qilish vositalari, yoqilg‘i-moylash mahsulotlari va texnikalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarid qilish huquqini berish orqali takomillashtirish taklif qilingan;

donni qayta ishlovchi korxonalarda don yetishtirish, qayta ishlash va sotish amaliyotini har gektar sug‘oriladigan maydon hisobidan o‘rtacha 2,5 tonna bug‘doyni birja savdolari orqali, qolgan qismini to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar asosida sotib olish taklifi ilmiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

g‘allachilik korxonalari uchun innovatsion-klaster tizimlaridan foydalanishga asoslangan ishlab chiqilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tomonidan amalga oshirish uchun qabul qilindi, chunki u g‘allachilik faoliyatiga yanada aniqroq baho berish imkonini berdi. G‘allachilikni rivojlantirishda hududlarning imkoniyatlari.

marketing xizmati faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha taklif etilayotgan modelni qo‘llash tayyor mahsulotga bo‘lgan talab va taklifni xolisona aniqlash imkonini berdi, bu esa tarmoqni rivojlantirishning strategik rejalashtirishini ishlab chiqishga ta’sir ko‘rsatdi;

taklif etilayotgan ishlab chiqarishni rejalashtirish modelining amaliyotda qo‘llanilishi don ekishni optimallashtirishni aniqlash metodikasini takomillashtirish imkonini berdi;

don klasterini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyot elementlaridan foydalanish bo‘yicha taklif etilayotgan mexanizm tarmoq axborot bazasida paydo bo‘ladigan katta ma’lumotlar bilan ishlashni optimallashtirish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Usullar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Toshkent viloyati Statistika boshqarmasi kabi rasmiy manbalardan olingan ma’lumotlarni tahlil qilish, prognozlash, iqtisodiy ko‘rsatkichlarni aniqlashda qo‘llaniladigan statistik yondashuvga asoslanadi. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida

bilim va innovatsiyalar milliy markazi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzurida faoliyat yurituvchi FAO Xalqaro tashkilotining internet ma'lumotlaridan foydalanganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati g'allachilik sanoati hamda uning tarkibidagi korxonalarda tarkibiy o'zgarishlar jarayonining maqsadli davlat dasturlari chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishda foydalanishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati uning ilmiy natijalaridan oliy ta'lim tashkilotlarida o'qitiladigan "Soha iqtisodiyoti", "Sanoat iqtisodiyoti", "Tarmoqlar iqtisodiyoti" fanlari bo'yicha ishchi-o'quv dasturlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. G'allachilik klasterining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

donni qayta ishlovchi va eksport qiluvchi klasterlarning don mahsulotlarini xarid qilishga talab etiladigan aylanma mablag'larini to'ldirish uchun "revolver" kreditlarini ajratish orqali qo'llab-quvvatlash zarurligi ilmiy taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-sentyabrdagi "Qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari belgilanganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 577-sonli qarorini 6-bandini ishlab chiqishda (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 23-sentyabrdagi 05/15-04-438-sonli ma'lumotnomasi) foydalanilgan. Natijada donni qayta ishlovchi va eksport qiluvchi klasterlarning don mahsulotlarini xarid qilish uchun zarar bo'lgan aylanma mablag'larni to'ldirish imkoniyati yaratiladi;

donni qayta ishlovchi sanoat korxonalarini ilmiy tadqiqot institutlari bilan hamkorligini oshirishni korxonalarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, biznes loyihalarni tayyorlash bo'yicha biznes maktablarini tashkil etish orqali takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-apreldagi PQ-113-sonli "2023-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorni 6-bo'limni g-bandini ishlab chiqishda (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 23-sentyabrdagi 05/15-04-438-sonli ma'lumotnomasi) foydalanilgan. Natijada donni qayta ishlovchi sanoat korxonalarini bilan ilmiy tadqiqot institutlari hamkorligining samaradorligini oshirishga, sanoat korxonalarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish hamda biznes loyihalarni tayyorlash bo'yicha tajribalarini oshirishga xizmat qiladi.

donni qayta ishlovchi klasterlarda moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni davlat tomonidan ajratilayotgan kredit mablag'laridan erkin foydalanish, mineral o'g'itlar, o'simliklarni himoya qilish vositalari, yoqilg'i-moylash mahsulotlari va texnikalarini to'g'ridan-to'g'ri xarid qilish huquqini berish

orqali takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-noyabrdagi “G‘alla yetishtirish va sotishda erkin raqobatni ta‘minlaydigan bozor tamoyillarini joriy etish to‘g‘risida”gi PQ-10 sonli qarorini 1-bandini beshinchi xatboshini ishlab chiqishda (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 23-sentyabrdagi 05/15-04-438-sonli ma‘lumotnomasi) foydalanilgan. Natijada g‘allachilik klasterlariga kredit mablag‘laridan erkin foydalanish, don yetishtirish uchun zarur vositalar bilan o‘z vaqtida ta‘minlash imkonini beradi;

donni qayta ishlovchi korxonalarida bozor mexanizmini joriy qilishni don yetishtirish, qayta ishlashni va sotishda har gektar sug‘oriladigan maydon hisobidan o‘rtacha 2,5 tonna bug‘doyni birja savdolari orqali, qolgan qismini to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar asosida sotib olish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-noyabrdagi “G‘alla yetishtirish va sotishda erkin raqobatni ta‘minlaydigan bozor tamoyillarini joriy etish to‘g‘risida”gi PQ-10 sonli qarorini 1-bandini ikkinchi xatboshini ishlab chiqishda (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 23-sentyabrdagi 05/15-04-438-sonli ma‘lumotnomasi) foydalanilgan. Natijada don yetishtirish, qayta ishlashni va sotish mexanizmini takomillashtirishga hamda don mahsulotlarini yetishtiruvchi va qayta ishlovchi korxonalar daromadini oshirishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalarini aprobat siya qilish. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ishlar e‘lon qilingan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop qilish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola, jumladan 2 ta respublika, 1 ta xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 165 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va olingan natijalarning amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotda taqdim etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya ishining tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Klaster asosida don mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil qilishning uslubiy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida g‘alla ishlab chiqarishda hududiy agrosanoat klasterlarining mohiyati, hududiy iqtisodiy

aloqalarni yoʻlga qoʻyishning muhimligi va respublika iqtisodiyotida gʻallachilik sohasining ahamiyati aniqlangan, xorijiy mamlakatlarning gʻallachilik klasterlarini rivojlantirish tajribasi tahlil qilinib, undan Oʻzbekiston sharoitida foydalanish boʻyicha takliflar tayyorlangan.

Fikrlar xilma-xilligini inobatga olgan holda, dissertatsiyada idoraviy hududiy klasterlar xoʻjalik yurituvchi subyektlar qaysi tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan boʻlsa, xuddi shu tarmoqlarga tegishli murakkab tuzilmalar sifatida belgilangan. Bu tuzilmalar geografik mahalliylashuv xususiyatlariga ega boʻlib, mintaqaviy rivojlanish jarayonida oʻzaro hamkorlik qiladi.



1-rasm. Don ishlab chiqarish boʻyicha kompleks klaster shakllantirish sxemasi.⁵

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan klaster usuli nafaqat tadqiqot olib borish va klaster shakllantirishni yanada oqilona bajarish, koʻplab tizimli xatolarga yoʻl qoʻymaslik va don yetishtirish boʻyicha samarali agrosanoat klasterlarini yaratish, balki turli yoʻnalishlarda klasterlarni shakllantirish imkonini beradi (1-rasm).

Donni qayta ishlash sanoati milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri boʻlib, aholi uchun non mahsulotlari va hayvonlar uchun ozuqa ishlab chiqarishning asosiy manbai hisoblanadi. Donni qayta ishlash tarmogʻi eng muhim mexanizatsiyalashgan tarmoq boʻlib, milliy iqtisodiyotda ustuvor oʻrinni egallaydi.


⁵ Mavjud manba asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasida klasterlarni shakllantirish amaliyoti juda keng tarqalgan, biroq integratsiyalashgan klaster tuzilmasini shakllantirish hali ham ishlab chiqilmoqda. Bugungi kunda klasterlarning shakllanishi va rivojlanishi uchun ushbu murakkab tuzilmani shakllantirishning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini belgilovchi ayrim omillar zarur.

Muallifning fikricha, bozorning (shu jumladan, ichki iqtisodiyotning) paydo bo‘lishi va faoliyat yuritishiga ta’sir qiluvchi omillarga quyidagilar kiradi:

- geografik joylashuv va yaqinlik;
- raqobat ustunligi;
- ishtirokchilar soni;
- yirik tarmoq yetakchilarining mavjudligi (donni qayta ishlash klasterlarida markaziy o‘rinni zavodlar egallaydi);
- barcha ishtirokchilar o‘rtasida bozor munosabatlarining rivojlanishiga hech qanday to‘siqning bo‘lmasligi;
- innovatsion faoliyatga talab.

Hozirgi vaqtda integratsiyalashgan agrosanoat tashkilotini va ishlab chiqarish tuzilmasini yaratish, samaradorlikni oshirish mexanizmlarini shakllantirish kabi iqtisodiy masalalar tizimli va majmuaviy yechimlarni talab qiladi. Xorijiy tajribaga asoslangan klaster yondashuvi butun jahonda milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan siyosat deb tan olinadi.



2-rasm. Kompleks don yetishtirish klasterini shakllantirish sxemasi.⁶

Ayrim hududlarda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining kompleks tuzilmasini yaratish jarayonida oqilona tamoyillarga asoslangan yangi tashkiliy shakllar vujudga keladi. Uzluksiz ko‘p bosqichli ishlab chiqarishning ikki yoki undan ko‘p o‘zaro aloqa qiluvchi elementlari izchil birlashtirilganda eng yuqori sifatdagi yangi tashkiliy boshqaruv vujudga keladi.

Dissertatsiyaning **“Toshkent viloyatida don ishlab chiqarishning zamonaviy holati va rivojlanishining tahlili”** nomli ikkinchi bobida mintaq

⁶ Muallif tomonidan tuzilgan.

g'allachilik sohasining o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan bo'lib, uning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni ochib berilgan, tarmoq rivojlanishining hozirgi holati tahlil qilingan.

Don ishlab chiqarish Toshkent viloyati agrosanoat majmuasining asosiy quyi majmualaridan biri bo'lib, viloyatda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi ko'p jihatdan unga bog'liq.

“2023-yilda mamlakatda umumiy g'alla yetishtirish hajmining 650.9 ming tonna hosildorlik Toshkent viloyati hissasiga to'g'ri keladi, bu 2019-yilga nisbatan 79,7 ming tonnaga ko'pdir⁷. Toshkent viloyatining g'alla yetishtirish ulushi an'anaviy ravishda 7,5 foizdan yuqori (2019-yilda 7,7 foiz, 2020-yilda 7,1 foiz, 2021-yilda 7,5 foiz, 2023-yilda 7,5 foiz va 2023-yilda 7,7 foiz). Mamlakatda umumiy g'alla yetishtirish yillik hajmining deyarli 7,7 foizi Toshkent viloyati hissasiga to'g'ri keladi. 2023-yilda Toshkent viloyatining iqtisodiy faol qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilari tomonidan don ekinlari yetishtirish 572,7 ming tonnani tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 9,6 foizga oshgan. Viloyatda umumiy g'alla hosili tarkibiga qo'shilgan eng katta “hissa” bug'doy yetishtirishga to'g'ri keladi, uning ulushi 2023-yilda 507,3 ming tonna hosildorlik umumiy g'alla ekinlariga nisbatan 73,0 foizni tashkil etdi”⁸.

2018-2023-yillarda Toshkent viloyatidagi barcha toifadagi fermer xo'jaliklarida yalpi g'alla hosili ming tonna. Bug'doy, makkajo'xori, arpa va sholi qishloq xo'jaligi tashkilotlari va yakka tartibdagi fermer xo'jaliklarida yetishtiriladigan eng keng tarqalgan ekinlardir. Bu xo'jaliklarda g'alla mahsulotlari yetishtirish eng rivojlangani bo'lib, ushbu tarmoqni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Buning sababi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayoni eng yuqori mexanizatsiyalashtirish darajasiga erishdi, bu esa mehnat xarajatlarini optimallashtiradi.

Bugungi kunda O'zbekistonning faol qishloq xo'jalik siyosati tufayli O'zbekiston don mahsulotlari mamlakat ichki oziq-ovqat bozori ehtiyojlarini qondirmoqda. Biroq, O'zbekiston donni qayta ishlash sanoati ayrim muammolarga duch kelmoqda va o'zining o'sish salohiyati va raqobatbardoshligini yanada rivojlantirishga qodir emas. Rivojlanishni cheklovchi omillarga tabiiy-iqlim sharoitlariga yuqori qaramlik, ichki iste'mol uchun don yetishtirishdagi kechikishlar, tarkibiy va texnologik modernizatsiyalash va innovatsiyalarning past darajasi, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasining rivojlanmaganligi, shuningdek, don bozorida narxlarning tebranishi kiradi. Ishlab chiqarishni hududiy taqsimlash va hududiy salohiyatdan optimal foydalanish o'rtasida nomutanosiblik mavjud.

Bug'doy, makkajo'xori, arpa va sholi qishloq xo'jalik tashkilotlari va fermer (yakka tartibdagi) xo'jaliklarida yetishtiriladigan eng keng tarqalgan ekinlardir. Bu xo'jaliklarda don mahsulotlari yetishtirish eng yuqori darajada rivojlangan (1-jadval).

⁷ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika saytida keltirilgan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan guruhlangan.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika saytida keltirilgan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan guruhlangan.

**2018/2023-yillarda Toshkent viloyatida xo‘jalik turlari bo‘yicha
don ishlab chiqarish tuzilishi, %⁹**

Xo‘jalik turi	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2023-yilning 2018-yildan farqlanishi (+, -), %
Qishloq xo‘jalik tashkilotlari	8,0	11,7	31,0	44,1	43,7	47,1	+39,1
Fermer xo‘jaliklari	85,9	83,8	64,8	52,0	52,5	49,1	- 36,8
Yordamchi xo‘jaliklar	6,1	4,5	4,2	3,9	3,8	3,8	- 2,3
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100	100,0	-

2023-yilda Toshkent viloyatida don ekinlari maydoni 1461 ming gektarni yoki umumiy qishloq xo‘jaligi yerlarining 50 foizdan ortig‘ini tashkil etdi. 2023-yilda g‘allaning 9,4 foizi qishloq xo‘jalik tashkilotlari, 90,6 foizi fermer va kichik xo‘jaliklar tomonidan yetishtirildi. Fermerlar toifalari bo‘yicha g‘alla yetishtirish tarkibi butun tadqiqot davrida sezilarli o‘zgarishlarga duch kelmagan. Bu, bir tomondan, bozor maydonida barqaror holat (tarmoqlar o‘rtasida shakllangan iqtisodiy aloqalar), boshqa tomondan esa – mintaqaviy don bozorida strategik mehnat taqsimoti shakllanganidan dalolat beradi. Buning uchun donning umumiy hosildorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillarning miqdoriy tahlilini o‘tkazish kerak. Bu omillarga don ekinlarining tuzilishi, ekin maydoni va har xil don ekinlari hosildorligida bir gektarga to‘g‘ri keladigan potensial unumdorlik kiradi.

Toshkent viloyati donni qayta ishlash korxonalari bozor makonining strategik tahlili shuni ko‘rsatadiki, sanoat subyektlari iqtisodiy va qishloq xo‘jalik sohalari bilan idoralararo aloqalarni shakllantirishda faol qatnashmoqda, shu bois tarmoqning ulkan salohiyati ham tashqi bozorlarga chiqish bilan bog‘liq.

Umuman olganda, don va don mahsulotlarining mintaqaviy bozorlari ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarning umumiy samaradorligini oshirish uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi, ammo ularni amalga oshirish texnik, tashkiliy va iqtisodiy bilimlarni talab qiladi.

Barqaror iqtisodiyot va bozor mavqeyini shakllantirish sharoitida Toshkent viloyatida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish strategiyasining tahliliga ko‘ra, viloyat oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish imkoniyatlaridan foydalanishi mumkin, ammo uzoq muddatli istiqbolda professional agrobiznesning zaif tomonlarini afzalliklarga aylantirish choralarini ko‘rish zarur. SWOT-tahlil natijalari 2-jadvalda keltirilgan.


Bu bozor konyunkturasi salbiy oqibatlarini yumshatish, uni qisman qulaylashtirish va ko‘chmas mulk obyektining bosqichma-bosqich rivojlanishini ta’minlashga yordam beradi.

⁹ Muallifning hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

**Toshkent viloyatida donni qayta ishlash sohasining SWOT-tahlili natijalari
(un sanoati misolida)¹⁰**

Kuchli tomonlar	Zaif tomonlar
1. Sotuvlar barqarorligi 2. Malakali ishchi kuchining mavjudligi 3. Xom ashyo bazasining barqarorligi 4. Zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarining qo'llanishi 5. Mahsulotlarning keng assortimenti	1. Rentabellikning oshishiga ta'sir eta olmaslik; 2. Asosiy vositalarning foydalaniladigan qismining yuqori amortizatsiya qiymati; 3. Mavsum davrida aylanma mablag'larning yetishmasligi
Imkoniyatlar	Tahdidlar
1. Yuqori texnologik salohiyat 2. "Narx-sifat" mezonini bo'yicha raqobat ustunligi 3. Agrosanoat integratsiyasi sohasidagi yutuqlar 4. Iste'molchilarning xohish-istaklari 5. Bir nechta sotish sohasini qamrab olish 6. "Revolver" kreditini ajratish orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlash	1. Yangi sotish bozorlariga chiqish to'siqlari 2. Donli ingrediyentlar bozorida asosiy ishtirokchilar bilan kuchli raqobat 3. Faoliyatning past rentabelligi 4. Eksport salohiyatining pastligi 5. Tor ishlab chiqarish salohiyati

Toshkent viloyatida donni qayta ishlashning SWOT-tahlili natijalari 2-jadvalda keltirilgan. Toshkent viloyatidagi 9 ta g'allachilik klasteriga 142,05 ming gektar yer ajratilgan, 115,485 ming gektar yerlarda 2659 ta fermerlik va g'allachilik kooperativlari faoliyat yuritmoqda.



3-rasm. Donni qayta ishlovchi korxonalarini aylanma mablag'larini to'ldirish mexanizmi¹¹

Keltirilgan 3-rasmda donni qayta ishlovchi korxonalarini zarur bo'lgan xom

¹⁰ Muallif tomonidan tuzilgan.

¹¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

ashyo bilan ta'minlash uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar bilan ta'minlash mexanizmi ishlab chiqilgan. Ushbu tizim korxonalariga arzon narxlarda xarid qilish sotib olish uchun bo'lgan da aynan xom ashyolarni bir vaqtda yetishtirilganligi hisobiga aylanma mablag'lariga talab ortadi. Shu nuqtayi nazardan ham ushbu korxonalarini zarur resurslar bilan ta'minlash orqali, xomashyo bazasini o'z vaqtida, arzon narxlarda shakllantirish imkonini beradi.

“Revolver” kreditlari — bu kredit turi bo'lib, u qo'shimcha mablag'lar olish imkonini beradi va qaytarilgan mablag'lar qaytadan ishlatilishi mumkin. Bu turdagi kreditlar, odatda, faqat belgilangan summaga emas, balki foydalanilgan mablag'ning miqdoriga asoslangan bo'ladi.

Revolver kreditlarining asosiy xususiyatlari:

1. Ishlatilgan mablag'lar bo'yicha foyda: Kredit oluvchi faqat olingan summa bo'yicha protsenti to'laydi. Agar kreditning bir qismi qaytarilsa, bu summa qaytadan ishlatish uchun ochiladi.

2. Fleksibillik: Kreditni qayta-qayta o'zgartirish va yangilash imkoniyati mavjud, shuningdek, har qanday vaqtda ma'lum bir summa olish yoki qayta to'lash mumkin.

3. Qaytarish shartlari: To'lovlar ko'pincha foizlar va qism-qism to'lovlar ko'rinishida amalga oshiriladi. Qaytarilgan mablag' qaytadan ishlatilishi mumkin.

4. Turli shakllarda mavjud: Revolver kreditlari foydalanuvchining ehtiyojlariga qarab turli shakllarda bo'lishi mumkin.

Kichik biznes subyektlarni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentyabrdagi “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-306 sonli qarori bilan “garov pasaytirilgan garov talablari asosida 150,0 mln so'mgacha har 12 oyda so'ndirish sharti bilan 36 oyga va o'z mahsulotlarini eksport qiluvchilarga 1,5 milliard so'mgacha har 12 oyda so'ndirish sharti bilan, 6 oy imtiyozli davri bilan 36 oygacha muddatga revolver”¹² kreditlarini ajratish belgilangan. Bu tizim bevosita sanoat korxonalarini aylanma mablag'larini to'ldirishni, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratishni imkonini beradi.

Tahlillardan kelib chiqib, donni qayta ishlovchi va eksport qiluvchi klasterlarning don mahsulotlarini xarid qilishga talab etiladigan aylanma mablag'larini to'ldirish uchun “revolver” kreditlarini ajratish orqali qo'llab-quvvatlash zarur.

Keltirilgan 3-jadvalda Respublikadagi (Toshkent viloyatidagi) g'allachilik klasterlar tomonidan 2023-2024-yillarda amalga oshirilgan investitsion loyihalar keltirilgan bo'lib, respublika bo'yicha jami 1866035 tonna donni qayta ishlash imkoniyati yaratiladi. Amalga oshiriladigan loyiha qiymati 1619761 mln. so'mni, yaratiladigan ish o'rinlar soni 5885 tani tashkil etadi.

Toshkent viloyatida jami 6 g'allachilik klasterlarida investitsion loyihalar amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo'lib, jami 418815 tonna quvvat oshiriladi.

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentyabrdagi “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-306 sonli qarori. [PQ-306-son 14.09.2023. Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida \(lex.uz\)](#)

Investitsiya loyiha qiymati 188210 mln.so‘m, yaratiladigan yangi ish o‘rinlari 912 tani tashkil etadi(4-jadval). Bundan tashqari tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalar uchun jami 100765,0 mln.so‘m kredit ajratilishi ko‘zda tutilgan.

3-jadval

Toshkent viloyatidagi g‘allachilik klasterlar tomonidan 2023-2024-yillarda amalga oshirilgan investitsion loyihalar¹³

№	G‘allachilik klasterlari nomi	Investitsion loyihalar				
		Yo‘nalishi	Quvvati	Loyihaning jami qiymati, (mln.so‘m)	Bank krediti, (mln.so‘m)	Yaratiladigan ish o‘rni, (nafar)
Respublika bo‘yicha jami:			1866035	1 619 761	453485	5 885
Toshkent viloyati bo‘yicha jami:			416780	188210	100765	912
1	“Bekobod Rice Klaster” UK	Un ishlab chiqarishni tashkil qilish	63 000	60 350	45000	275
2	“Mirzaobod Parranda Asl” MCHJ	Un ishlab chiqarishni tashkil qilish	200 000	60	45	150
3	“Al Basir Parranda Gold” MCHJ	Don mahsulotlarini saqlash ombori	2 000	5 500	4000	50
		Muzlatkichli omborxonona tashkil etish	500	7 500		24
		Un ishlab chiqarishni tashkil qilish	60	10 000	7000	45
4	“ADZ” Oqqo‘rg‘on don klaster” MCHJ	Un ishlab chiqarishni tashkil qilish	24 000	3 200		85
		Don mahsulotlarini saqlash ombori	6 500	1 000		15
		Urug‘lik don ishlab chiqarish sexi	25 000	1 200		40
5	“TST Cluster” MCHJ	Urug‘lik don ishlab chiqarish sexi	57 600	42 000	2000	138
6	“Zernoff” MCHJ	Un ishlab chiqarishni tashkil qilish	120	16 000	12000	50
		Don mahsulotlarini saqlash ombori	40 000	38 400	30720	40

Keltirilgan 4-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, respublikada g‘allachilik klasterlarining quvvatlari keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra respublika bo‘yicha bug‘doyni qabul qilish omborxonasi 2720340 ming tonnani tashkil etadi, un ishlab chiqarish tegirmoni 188443 ming tonna, omixta yem ishlab chiqarish sexi 325075 ming tonna, non va non mahsulotlari ishlab chiqarish 145861 ming tonnani tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkichlar Toshkent viloyatida bo‘yicha bug‘doyni qabul qilish omborxonasi 294000 ming tonnani tashkil etadi, un ishlab chiqarish tegirmoni 57145 ming tonna, omixta yem ishlab chiqarish sexi 21621 ming tonna, non va non mahsulotlari ishlab chiqarish 24315 ming tonnani tashkil etadi.

Respublikada 2023-2024-yillarda faoliyat yuritayotgan g‘allachilik klasterlar samaradorligini tahlilini ko‘rio‘imiz mumkin. Respublika bo‘yicha klasterlarga jami birlashtirilgan yer maydoni 879385 gektarni tashkil etadi, ulardagi fermer xo‘jaliklar soni 37313 ta, o‘rtacha xosildorlik 80,9 sentner, 2024-yilda 3834475 toona boshqoliq don yetishtirgan.

¹³ Rasmiy manbaalar asosida muallif ishlanmasi.

**Respublikadagi (Toshkent viloyatidagi) g‘allachilik klasterlarining
quvvatlarni qamrab olinishi¹⁴**


№	G‘allachilik klasterlari nomi	Bug‘doyni qabul qilish omborxonasi, (ochiq va yopiq) (ming tn)	Un ishlab chiqaruvchi tegirmon (ming tn)	Omixta yem ishlab chiqarish sexi (ming tn)	Non va non mahsulotlari ishlab chiqarish sexi (ming tn)
Respublika bo‘yicha jami shu jumladan:		2 720 340	1 886 443	325 075	145 861
Toshkent viloyati bo‘yicha shu jumladan:		294 000	57 145	21621	24315
1	“Bekobod Rice Klaster” UK	40 000	2 338	736	535
2	“Mirzaobod Parranda Asl” MCHJ	30 000	3 386	3 774	1 554
3	“SANTA GROUP AGRO” MCHJ	20 000	9 699	6 759	1 880
4	“EVERYDAY” MCHJ	67 000	8 976	3 878	8 790
5	“Chinoz Oltin Don Agrocluster” MCHJ	22 000	6 116	550	1 246
6	“Al Basir Parranda Gold” MCHJ	15 000	6 547	4 685	619
7	“ADZ Oqqo‘rg‘on don klaster” MCHJ	30 000	3 801	-	-
8	“TST Cluster” MChJ	40 000	9 448	33	6 957
9	“Zernoff” MCHJ	30 000	6 834	1 206	2 734

Viloyatda eng katta omborxonasi, un, omixta yem ishlab chiqarish hamda non va non mahsulotlarini ishlab chiqarish “EVERYDAY” MCHJ, “Bekobod Rice Klaster” UK, “TST Cluster” MChJ korxonalar hisoblanadi. Ishlab chiqarish quvvati eng pastlari Al Basir Parranda Gold MCHJ va “Chinoz Oltin Don Agrocluster” MCHJ korxonalarini hisoblanadi(5-jadval).

Don ishlab chiqarish faoliyatidagi muammo sifatida foydaning ishlab chiqaruvchilar, elevatorlar, vositachilar, qayta ishlash, transport va savdo korxonalarini o‘rtasida notekis taqsimlanishini ajratib ko‘rsatish mumkin. Ularning samarasiz o‘zaro aloqalari don ishlab chiqaruvchilar va donni qayta ishlash korxonalarini tranzaksiya xarajatlarining oshishiga, shuningdek, daromadlarining kamayishiga olib keladi, bu esa ularga takror ishlab chiqarishni kengaytirish va ishlab chiqarilgan mahsulot likvidligini ta‘minlash imkonini bermaydi.

Mamlakatda oziq-ovqat tarmog‘ini raqobatbardoshligini oshirish, ichki bozor narxlarini barqarorligini ta‘minlash uchun donni qayta ishlovchi klasterlarni davlat tomonidan ajratilayotgan moliyaviy resurslardan samarali foydalanish mexanizmini tashkil etish zarur. Donni qayta ishlovchi klasterlarda davlat tomonidan ajratilayotgan moliyaviy resurslardan samarali foydalanish mexanizmi 4-rasmda keltirilgan.

¹⁴ Rasmiy manbaalar asosida muallif ishlaniishi.



4-rasm. Donni qayta ishlovchi klasterlarda davlat tomonidan ajratilayotgan moliyaviy resurslardan samarali foydalanish mexanizmi¹⁵

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, donni qayta ishlovchi klasterlarda moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni davlat tomonidan ajratilayotgan kredit mablag'laridan erkin foydalanish, mineral o'g'itlar, o'simliklarni himoya qilish vositalari, yoqilg'i-moylash mahsulotlari va texnikalarini to'g'ridan-to'g'ri xarid qilish huquqini berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu bevosita g'allachilik klasterlariga kredit mablag'laridan erkin foydalanish, don yetishtirish uchun zarur vositalar bilan o'z vaqtida ta'minlash imkonini yaratadi.

